

MILLIY-MADANIY QADRIYATLAR TIZIMI – JAMIYATIMIZ MA’NAVIY TIKLANISHINING
MUHIM ZAMINI

Xoshimov Sanjarbek Sultonbekovich

FarPI “O‘zbekiston tarixi va ijtimoiy fanlar” kafedrası assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6590880>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada jamiyatimiz ma’naviy tiklanishining muhim zamini milliy-madaniy qadriyatlar tizimi haqida so‘z boradi. Shuningdek, jamiyatimizda ro‘y berayotgan ma’naviy yuksalish, insonning ahloqiy, g‘oyaviy, siyosiy kamoloti mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy uyg‘onish jarayonlari bilan uzviy aloqadorligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, madaniyat, millat, jamiyat, qadriyat, ahloq, madaniy meros, g‘oya.

ANNOTATION: This article discusses the system of national and cultural values, which is an important basis for the spiritual revival of our society. It is also shown that the spiritual growth of our society, the moral, ideological and political maturity of man are inextricably linked with the processes of national awakening in our country.

Key words: spirituality, culture, nation, society, values, morals, cultural heritage, idea.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается система национально-культурных ценностей, которая является важной основой духовного возрождения нашего общества. Также показано, что духовный рост нашего общества, нравственная, идейная и политическая зрелость человека неразрывно связаны с процессами национального пробуждения в нашей стране.

Ключевые слова: духовность, культура, нация, общество, ценности, нравственность, культурное наследие, идея.

Istiqloq diyorumizning ulug‘ farzandlari, buyuk siymolarining nomlarini faxru-iftihor bilan tilga olishga, tavalludlarini umumxalq tantanasi sifatida keng nishonlashga, ularning asarlarini ona tilimizda chop etib, xalqimiz ma’naviy kamolotini ta‘minlashga qulay imkoniyatlar yuzaga keltirdi. Shuningdek, mustaqillik sobiq ijtimoiy-siyosiy tuzum hukmronlik qilgan yillardagi xalqimiz tarixiga, madaniyatiga biryoqlama yondashishdek ijtimoiy illatdan ongimizni holi etdi.



Mustaqillik bizning milliy-ma'naviy ildizlarimiz naqadar teran, naqadar baquvvat ekanligini ochiq-oydin ko'rsatib berdi.

“Biz, - deydi birinchi prezidentimiz I.Karimov, - boshqalarni kamsitish niyatidan yiroqmiz. Ammo bugungi ayrim saltanatlar ahli qabila-qabila bo'lib yashagan zamonlarda bizning muborak zaminimizda ilmu fan barq urib yashnagan, tabiiy ilmlar, xususan, tibbiyot, matematika, astronomiya kabi fanlar madrasalarda o'qitilgani, ilmiy akademiyalar tashkil etilib, mag'ribu mashriqqa nom taratganini eslasak va bundan har qancha g'ururlansak arziydi”.

Mazkur asarning oldingi sahifalarida keltirilgan ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, o'lkamiz olimlari nafaqat tabiiy ilmlar, balki ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida (jumladan, falsafa, mantiq, huquqshunoslik, san`atshunoslik, tarix va h.k.) ham o'zlarining ilmiy maktablarini yaratib jahon madaniyatini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shib kelganlar.

Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyati, adolatparvarlik, ma'rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlarini, Sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlanib kelgan. Endilikda bizning vazifamiz ana shu an'anani yanada taraqqiy ettirib o'z xalqimiz tafakkuriga moyil, tushunarli va yaqin bo'lgan Sharq falsafasi bilan bir qatorda islom ta'limotidan ham bekamu ko'st foydalanishdir.

Darhaqiqat, islom ta'limoti ming yillar mobaynida xalqimiz yaratgan boy madaniy va mafkuraviy merosdir, uning jamiyatimiz taraqqiyotidagi ijobiy rolini aslo inkor etib bo'lmaydi. Akademik Izzat Sulton ta'kidlaganidek, “diniy e'tiqodlarga keng yo'l ochilgan, din bizning madaniyatimizning ajralmas qismi bo'lib qolgan bugungi kunda bizga diniy e'tiqod bilan sug'orilgan, ollohni tanishga asoslangan ahloq zarur. Xalqimizning butun tarixi mobaynida ishlangan, asrdan - asrga boyitib va mukammallashtirib borilgan ahloq bugungi va kelajagimizdagi ahloqiy qoidalarimizga asos bo'la oladi”. Mustaqillik bizga ma'naviy mulkimizni, tariximizni, ulug' bobolarimiz ruhini shod etish imkoniyatini qaytarib berdi. Istiqloq tufayli tariximizga munosabat ijobiy tomonga o'zgardi. Bugungi kunda ulug' bobokalonlarimiz Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubroning insonni ma'naviy yetuklikka chorlovchi diniy, axloqiy va huquqiy hikmatlari qaytadan jaranglay boshladi. Ajdodlarimizning tarixi tiklanayotganligi mustaqilligimizning ajoyib samarasidir. Xalqimizning o'tmish tarixi va hayotini aks ettirgan asarlarning o'z ona tilimizda nashr etilayotganligi



quvonchimizga quvonch qo'shmoqda. Endilikda o'tmishimizning ko'pgina sahifalari hujjatlar, qo'lyozma materiallari, birinchi manbalar asosida yoritilmoqda. Tarixiy haqiqatlar asl manbalarga tayanib tiklanmoqda. Bularning hammasi tarixiy adolatning buyuk g'alabasi, tantanasidir.

Mustaqillik sharofati bilan tiklanib, qaddini rostlayotgan, to'xtovsiz rivojlanib borayotgan milliy madaniyatimizning jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtirish, insonni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash va kamol toptirishda o'rni benihoya kattadir. Jamiyatimizda ro'y berayotgan ma'naviy yuksalish, insonning ahloqiy, g'oyaviy, siyosiy kamoloti mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy uyg'onish jarayonlari bilan uzviy aloqadorlikdadir.

Insonning ma'naviy-axloqiy kamoloti nihoyatda keng, ko'p qirrali, mazmun-mohiyati jihatdan chuqur bo'lib, o'z ishiga juda ko'plab sohalarni qamrab oladi. Shularning ichida markaziy o'rinni dunyoqarash masalasi egallaydi.

Buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat va ilmiy kashfiyotlar jamiyatimizning oliy qadriyati bo'lgan – insonning dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, dunyoqarash – bu kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va h.k qarashlari va tasavvurlari majmuasidir. Demak, dunyoqarash olamidagi yaxlit, umumlashtirilgan bilimlar to'plamidir. Kishilar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to'g'risida qancha ko'p ma'lumotga, bilimga ega bo'lsalar ularning dunyoqarashi ham shu darajada mukammal va puxta bo'ladi. Dunyoqarashning yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u insonni qurshab turgan voqelikni anglash, tushunish bilan bir qatorda uni baholash hamdir. Ilmiy bilimlar dunyoqarash tarkibiga qo'shilib baholangach, insonning tevarak - atrofidagi ijtimoiy va tabiiy reallikda bevosita, amaliy yo'l tutish maqsadiga xizmat qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, dunyoqarash insonning voqelikdagi o'z o'rni va rolini belgilab beradigan ongli ravishda to'plangan, izohlangan va baholangan bilimlar majmuasidir. Dunyoqarash tarkibiga kishilarning olamni bilish va baholashga oid bo'lgan ishonch va e'tiqodlari, niyat va maqsadlari, orzu umidlari, ular faoliyatiga ma'lum yo'nalish beruvchi barcha qadriyatlar ham kiradi.

Mifologik, diniy, falsafiy dunyoqarash – ijtimoiy borliqning in'ikosi bo'lib, u muayyan tarixiy davrda insoniyat yaratgan bilimlar darajasiga hamda ijtimoiy tuzumga borliq bo'ladi. Inson faoliyatida ilmiy - falsafiy dunyoqarash asosiy rol o'ynaydi. Uning o'ziga hos xususiyati shundan



iboratki, u kishilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishining umumiy qonuniyatlar, haqida yaxlit ma'lumot beradi. Shu bilan birga u insonni qurshab turgan moddiy olamni bilish mumkinligini, materiyaning doimo harakatda va rivojlanishdaligini ta'kidlaydi. Falsafiy dunyoqarash asosida kishilar ob'ektiv olamdagi hamma narsa va hodisalar, jarayonlar o'zidan boshqa narsalar bilan ishki, zaruriy muhim aloqadorlikda, ta'sir va aks ta'sirida ekanligini shuqur anglab oladilar.

Kishilar dunyoqarashini shakllantirishda, ularda tabiat, jamiyat, insonning kelib shiqishi, rivojlanishi haqida tasavvurlar xosil qilishda Markaziy Osiyo mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ilmiy - falsafiy meros bitmas-tuganmas boylik xazinasini hisoblanadi. Undan unumli va samarali foydalanish hozirgi vaqtda mustaqil jamiyatimizning oldida turgan dolzarb vazifasidir.

Falsafiy dunyoqarash narsa va hodisalarni inson ongida yaxlit aks ettirish bilan bir qatorda u kishilarning tafakkurlash madaniyatini, ishki ma'naviy dunyosini shakllantiradi, ularni ma'naviy kamol toptirishga yordam beradi.

Falsafiy dunyoqarash kishilarga xos bo'lgan rostgo'ylik, poklik, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi olijanob fazilatlarni, axloqiy meyyorlar va qadriyatlarni mujassamlashtiradi.

Falsafiy dunyoqarash asosida kishilar jamiyatning tabiat bilan uzviy birligi, inson va insoniyat taqdirining mushtarakligi, turli-tuman xalqlar madaniyatining xilma-xilligi va birligi haqida ishonch xosil qiladi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining fikricha, barcha insonlarga xos bo'lgan olijanob fazilatlar eng avvalo faylasuflarda o'z aksini topmog'i lozim. Faylasuflarning xulq-atvori, axloqi ham o'z kasbiga loyiq bo'lishi kerak.

Shuningdek, o'z xalqining ra'yini va o'z xalqida bo'lgan eng yaxshi urf- odatlarni qattiq tutgan bo'lishi kerak. Faylasuf bo'lmoqchi bo'lgan odam o'z ahloqi va hislatlari bilan bu aytilgan shartlarga javob bera olsa, shundan keyin u falsafa bilimini o'rganishga va uni boshqalarga o'rgatishga kirishuvi mumkin», - deb yozadi Forobiy.

Inson ma'naviy kamolotining eng muhim ko'rinishi va zarur shartlaridan biri siyosiy madaniyatning o'sib borishidir. Agar har bir millat vakilida, har bir insonda yuksak siyosiy ong, siyosiy bilim va madaniyat, siyosiy ziyraklik bo'lmasa mustaqillik barqaror bo'la olmaydi.



Siyosiy madaniyat o'zida halollik va poklikni, ishchanlik va uzoqni ko'zlab ish tuta bilish fazilatlarini mujassam etgan odamlarning g'oyaviy, siyosiy yetukligi, nazariy bilimlarni istiqbolni yorqin tasavvur etgan holda amalda qo'llay bilish, kun tartibidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va mafkuraviy muammolarni keng miqyosda hal etish mahorati demakdir. Siyosiy madaniyat, aytilganlardan tashqari, insondagi faollik va tashabbuskorlikni, yuksak axloqiylik, qat'iy irodalik, xushmuomalalik, ziyraklik uzoqni ko'ra bilishni ham o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azimov U., Umurzakov A. GLOBAL PROBLEMS AND GENERAL VALUES. – 2020.
2. Jergashev U. A., Urinbaeva M. S., Umurzakov A. M. Rynok i npravstvennost //Problemy sovremennoj nauki i obrazovaniya. – 2019. – №. 10 (143).
3. Ergashev U. A., Umurzakov A. M. THE IMPACT OF ENVIRONMENTAL ISSUES ON HUMAN LIFE //Экономика и социум. – 2020. – №. 8. – С. 26-29.
4. Умурзаков А. М. Влияние различных факторов на процесс обучения студентов //Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 12-2 (145). – С. 176-178.
5. Ergashev U. A., Urinbaeva M. S., Umurzakov A. M. Market and morality.
6. Ergashev U. A., Umurzakov A. M. Problems of the impact of environmental problems on human life //Экономика и социум. – 2020. – №. 8. – С. 22-25.
7. Умурзаков А. М. ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ВЕРЫ //Экономика и социум. – 2021. – №. 4-2. – С. 507-510.
8. Azimov U., Umurzakov A. HIERARCHY OF VALUES AND PERSONAL VALUES //Экономика и социум. – 2021. – №. 1-1. – С. 354-355.
9. Умурзақов А. М. ДИНИЙ ФАНАТИЗМ ВА ЭЪТИҚОД МАСАЛАЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 1563-1567.
10. Хошимов С. С. ВАН ЯН МИН ФАЛСАФИЙ ТАЪЛИМОТИНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ВА ГНОСЕОЛОГИК ҚИРРАЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2020. – №. 3. – С. 771-776.



11. Khoshimov S. S. THOUGHTS ABOUT HUMAN NATURE IN CHINESE PHILOSOPHICAL THINKING AND THEIR INTERPRETATION IN THE IDEAS OF WANG YAN MIN //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 1. – С. 173-177.
12. Олтмишева Н. Г., Эргашев У. А. Нравственное сознание и поведение молодежи в современных условиях //Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 11-1 (144). – С. 112-114.
13. Ergashev U. A. Relationship with religion in Uzbekistan //Экономика и социум. – 2020. – №. 5-1. – С. 37-39.
14. Ergashev U., Khakimov A. Environmental problems in the works of eastern thinkers //Экономика и социум. – 2020. – №. 8. – С. 30-32.
15. Эргашев У. А. ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ИММУНИТЕТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ АСОСИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 1765-1768.
16. Ergashev U. A., Juraeva N. N. Qualities revered by Amir Temur //Экономика и социум. – 2020. – №. 5-1. – С. 40-42.
17. Эргашев У. РОЛЬ СОЦИАЛЬНОГО СЛОЯ СОБСТВЕННИКОВ В ФОРМИРОВАНИИ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА //Збірник наукових праць Л'ОГОС. – 2021.
18. Ergashev U. A., Hakimov A. M. MYSTICISM-SPIRITUCL-MORAL UPBRINGING //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-1. – С. 133-136.
19. Ergashev U. A., Hakimov A. M., Usmonova M. A. THE PHENOMENON OF JUSTICE IN YOUTH EDUCATION AND ITS CHARACTERISTICS //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-1. – С. 130-132.
20. Хакимов А. М., Эргашев У. А., Холмирзаева Ж. Х. Выборы Узбекистана – прозрачные выборы. – 2020.
21. Тўхтаров И., Эргашев У., Умурзақов А. МАФКУРАВИЙ ОМИЛЛАР ВА ЁШЛАР ТАФАККУРИ //Yosh Tadqiqotchi Jurnal. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 94-100.
22. Xoshimov Sanjarbek Sultonbekovich. (2022). GLOBALLASHUV JARAYONIDA SIYOSIY MADANIYATNING O'ZIGA XOSLIGI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6483612>



23. Tuhtarov I. et al. Kant's pedagogy and contemporaneity //Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation. – 2021. – Т. 32. – №. 2. – С. 1633-1636.
24. Adhamovich E. U. Development of Philosophical Views in Central Asia //Kresna Social Science and Humanities Research. – 2022. – Т. 3. – С. 189-192.
25. Эргашев У. А. РОЛЬ УЧИТЕЛЕЙ-НАСТАВНИКОВ В ОСМЫСЛЕННОМ ПРОВЕДЕНИИ ДОСУГА СТУДЕНТОВ //ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ. – 2021. – С. 150-153.
26. Қосимов К. И., Эргашев У. А. CHARACTERISTICS OF EASTERN DEMOCRACY AND CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN //Экономика и социум. – 2021. – №. 3-2. – С. 76-79.
27. Jergashev U. A., Urinbaeva M. S., Umurzakov A. M. Rynok i nrvstvinnost //Problemy sovremennoj nauki i obrazovaniya. – 2019. – №. 10 (143).
28. Умурзаков А. М. ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ВЕРЫ //Экономика и социум. – 2021. – №. 4-2. – С. 507-510.
29. Azimov U., Umurzakov A. HIERARCHY OF VALUES AND PERSONAL VALUES //Экономика и социум. – 2021. – №. 1-1. – С. 354-355.
30. Умурзаков А. М. ДИНИЙ ФАНАТИЗМ ВА ЭЪТИҚОД МАСАЛАЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 1563-1567.
31. Хошимов С. С. ВАН ЯН МИН ФАЛСАФИЙ ТАЪЛИМОТИНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ВА ГНОСЕОЛОГИК ҚИРРАЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2020. – №. 3. – С. 771-776.
32. Khoshimov S. S. THOUGHTS ABOUT HUMAN NATURE IN CHINESE PHILOSOPHICAL THINKING AND THEIR INTERPRETATION IN THE IDEAS OF WANG YAN MIN //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 1. – С. 173-177.
33. Ergashev Ulug'bek Adxamovich. (2022). "OMMAVIY MADANIYAT" NING MILLIY QADRIYATLARIMIZGA TA'SIRI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6483621>
34. Umurzaqov Axmadjon Mahamadovich. (2022). GLOBALLASHUV DAVRDA FAN VA TA'LIMNING DOLZARB MASALALARI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6483608>
35. Xoshimov Sanjarbek Sultonbekovich. (2022). GLOBALLASHUV JARAYONIDA SIYOSIY MADANIYATNING O'ZIGA XOSLIGI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6483612>